



XALQARO BAHOLASH DASTURLARI

Mamarahimova Dilshoda Ilhomovna

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi

Akhmedovdiyorbek7@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Xalqaro baholash dasturlari zamonaviy ta'lim tizimlarining muhim qismi bo'lib, ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarini va ko'nikmalarini baholashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlarining maqsadlari, uslublari, hamda ular ta'lim sifatini qanday oshirishi to'g'risida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro baholash dasturlari, Ta'lim sifati, PISA, TIMSS, OECD

АБСТРАКТНЫЙ:

Программы международной оценки являются важной частью современных систем образования и играют важную роль в оценке знаний и умений учащихся в образовательном процессе. В этой статье рассматриваются цели и методы международных программ оценки и то, как они могут улучшить качество образования.

Ключевые слова: Международные программы оценки, Качество образования, PISA, TIMSS, ОЭСР

ABSTRACT:

International assessment programs are an important part of modern education systems and play an important role in the assessment of students' knowledge and skills in the educational process. This article discusses the aims and methods of international assessment programs and how they can improve the quality of education.

Key words: International assessment programs, Quality of Education, PISA, TIMSS, OECD





Kirish

Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (inglizcha: Programme for International Student Assessment) — turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.

PISA testlari maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o'tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo'nalishiga afzallik berilib, jami testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo'ladi. 2000-yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan.

Test Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan konsorsiumda, milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqotda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar, shuningdek, OECD bilan hamkorlik aloqalari bo'lgan davlatlar ishtirok etadi.

PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo'lib, u turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta'lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. 2000-2015-yillar oralig'ida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda — Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada — Finlandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o'rta ta'lim tizimi yaxshi rivojlangan.

PISA testlari 5 ta yo'nalish bo'yicha o'qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik o'tkaziladi. Testlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.

PISA sinovlarida to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

Bir javobli testlar;

Bir nechta javobli testlar;

Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;





Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzivchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab quvvatlanadi).

Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o'quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan.

PISA asosiy yo'nalishlar

O'qish savodxonligi: Insonning matn shaklida berilgan ma'lumotlarni tushina olish va ularga reaksiya bera olish ko'nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o'qigan ma'lumotlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati.

Bu yerda, o'qish savodxonligi tushunchasi keng ma'no kasb etadi. Bu yo'nalish maqsadi o'quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi.

Matematik savodxonlik: Insonning matematikaning o'zi yashayotgan olamdagi o'rnini bilishi, matematik jarayonlarni to'g'ri va to'liq asoslay olishini tekshiradi. Shaxsning matematikadan yaratuvchan, qiziquvchan va fikrlovchi insonning hozirgi va kelajakdagi matematik bilimlarga bo'lgan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishini ta'minlash bu bo'limning asosiy maqsadidir.

Bu bo'limdagi savodxonlik terminidan bu bo'lim maqsadi odatda maktab dasturida beriladigan bilimlarni qay darajada o'zlashtirganini aniqlash emasligini ko'rsatish uchun foydalanilgan. Asosiy e'tibor matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash va intiutiv qaror qabul qilish talab qilinadigan turli uslublaridan qo'llagan holda foydalana olish nazarda tutiladi. Lekin bu turdagi savollarga javob berishda maktab dasturida beriladigan bilim va ko'nikmalar zarur bo'lishi mumkin.

Bu yo'nalish sinovlarida odatda hayotning turli sohalarida (tibbiyot, turar joy, sport va hokazo) duch kelinishi mumkin bo'lgan matematikaga oid vaziyatlar taklif qilinadi.

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi: Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushinish va inson





faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish bu bo'limning asosiy maqsadidir.

Bu savodxonlik asosi bizning maktablarimizda fizika (astronomiya elementlari bilan birga), biologiya, kimyo va geografiya fanlari o'qitilish jarayonida berilishi ko'zda tutilgan.

2000-yilda 32 davlatdan 265 000 o'quvchilar test sinovidan o'tgan. Ushbu yilda asosiy mavzu — o'qish va o'qilgan narsalarni tushunish qobiliyati tanlangan bo'lib, test savollarining uchdan ikki qismi aynan shu mavzuga bag'ishlangan.

PISA-2003 da 43 mamlakatdan 275 000 dan ortiq o'quvchi ishtirok etdi. O'qish bo'yicha Finlandiya 543 ball bilan birinchi o'rinni egalladi. Rossiya — 442 ball, AQSh — 495 ball, Serbiya — 412 ball olgan.

Matematika yo'nalishida Gonkong 550 ball bilan birinchi o'rinda, AQSh 483 ball, Italiya 466 ball, Rossiya 468 ball to'plagan.

Tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha Finlandiya yetakchilik qilgan (549 ball).

2006-yilda o'qish savodxonligi bo'yicha 57 davlat orasida Janubiy Koreya 556 ball bilan birinchi o'rinni egallagan.

Matematika yo'nalishida Taybey 549 ball bilan yetakchilik qilgan. AQSH 468 ball, Isroil 442 ball to'plagan.

Tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha Finlandiya 563 ball bilan birinchi o'rinda, Italiya 475 ball, AQSh 489 ball to'plagan.

2009 — yilda tadqiqotda 74 davlat ishtirok etgan. O'qish savodxonligi bo'yicha Xitoyning Shanxay shahri 556 ball bilan yetakchilik qilgan. Koreya 539 ball bilan ikkinchi va Finlandiya 536 ball bilan uchunchi o'rinni egallagan.

Matematika yo'nalishida ham Xitoyning Shanxay shahri 600 ball bilan yetakchi, MDH davlatlaridan Rossiya 468 ball, Qozog'iston 405 ball, Qirg'iziston 331 ball to'plagan.

2012-yilda PISA da 65 ta davlat, jumladan, OECDga a'zo 34 ta davlati ishtirok etdi.

Ishtirokchilarga an'anaviy testlar bilan bir qatorda tadqiqot tarixida birinchi marta yangi turdagi masala, ya'ni — interaktiv masalalar (interactive problems) taklif qilindi.

2015-yilda tadqiqotda 70 ta davlat ishtirok etdi Shu yili an'anaviy testlar bilan bir qatorda, moliyaviy savodxonlik bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi.





Singapur davlati o'qish savodxonligi, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi PISA tadqiqotining barcha yo'nalishlari bo'yicha birinchilikni egallagan. MDH davlatlaridan o'qish savodxonligi bo'yicha Qozog'iston 427 ball (53 — o'rin), matematik savodxonlik bo'yicha Rossiya 494 ball (23-o'rin) va tabiiy fanlar bo'yicha Moldova 428 ball (50-o'rin) to'plagan.

Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda Ta'lim inspeksiyasi deb ataladi), Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining:

a) quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni (keyingi o'rinlarda xalqaro tadqiqotlar deb ataladi) tashkil etish:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun;

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazini (keyingi o'rinlarda Milliy markaz deb ataladi) tashkil etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:





xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

3. Quyidagilar:

Xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha "yo'l xaritasi" 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ta'lim inspeksiyasi boshlig'iga, zarur hollarda, Milliy markaz tuzilmasiga xodimlarning umumiy cheklangan soni hamda mehnatga haq to'lash jamg'armasi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

4. Belgilab qo'yilsinki:





Milliy markaz davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, o'z ustaviga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachilik bo'linmasidagi shaxsiy g'azna hisob raqamiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va nomi ko'rsatilgan muhrga, o'z nomi yozilgan shtampga, blankalarga ega bo'ladi;

Milliy markaz xodimlariga Ta'lim inspeksiyasining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlari qo'llaniladi;

Milliy markaz direktori xalqaro tadqiqotlarning milliy loyiha menejeri hisoblanadi.

5. Milliy markazni moliyalashtirishning asosiy manbalari etib quyidagilar belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro donor tashkilotlarining grantlari;

xizmat ko'rsatishdan tushgan daromadlar;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

(5-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

6. Ta'lim inspeksiyasi bir oy muddatda:

Milliy markazning ustavini ishlab chiqib, tasdiqlash va uni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish;

Milliy markazni ta'lim sifatini nazorat qilish sohasida amaliy-metodik ish tajribasiga ega bo'lgan malakali mutaxassislar, shuningdek ilmiy-pedagogik stajga ega xodimlar bilan ta'minlash choralarini ko'rsin.

7. Milliy markaz Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Nurxon ko'chasi, 21-uy manzilidagi binoga tekin foydalanish huquqi bilan joylashtirilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga:

bir oy muddatda hududlardagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari va o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi hamda tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlarining malakali mutaxassislaridan xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish jarayoniga mas'ul xodimlarni tayinlash;





2019-yil 1-fevralga qadar Milliy markaz bilan birgalikda o'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta'minlash dasturini ishlab chiqish;

xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish;

o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish va 2019 — 2021-yillarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish;

xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollarni o'zida mujassam etgan o'quv dasturlari asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va adabiyotlar yaratish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahar hamda har bir tuman (shahar)da xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tayanch maktablarni belgilash;

umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash dasturlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanganlik va Internet jahon axborot tarmog'iga ulanganlik holatini inventarizatsiya qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish choralarini ko'rish;

o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida munosib ishtirok etishni ta'minlash maqsadida vazirlikning tarkibiy bo'linmalari (Respublika ta'lim markazi, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi) imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, zaruriyatdan kelib chiqib, tegishli bo'limlarining funksiyalarini qayta ko'rib chiqish vazifalari yuklatilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga:

xalqaro tadqiqotlar o'tkaziladigan o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish va qayta





tayyorlash hududiy mintaqaviy va tarmoq markazlarining o'quv dasturlariga xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish;

Oldingi tahrirga qarang.

xalqaro tadqiqotlar dasturlarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, davlat ilmiy dasturlari doirasida loyihalar tayyorlash va amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

(9-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 545-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son)

10. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Milliy markazning murojaatiga asosan uni belgilangan tartibda zarur aloqa vositalari, shu jumladan hukumat aloqa vositalari bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bir hafta muddatda PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi yuzasidan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan hamkorlik shartnomalarining imzolanishini tashkil etsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish uchun xalqaro moliya institutlari va chet el hukumatlari moliyaviy tashkilotlari kreditlarini jalb etish choralari ko'rsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

Milliy markazni saqlash hamda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish uchun a'zolik badallarini to'lash bilan bog'liq xarajatlarga zarur bo'lgan mablag'larni 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlari doirasida ajratsin, 2019-yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining parametrlarida nazarda tutsin;

ikki oy muddatda Milliy markazning asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq uning moddiy-texnika bazasini shakllantirish, shuningdek, zarur bo'lgan jihozlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini xarid qilish uchun mablag'lar ajratilishini ta'minlasin;

Milliy markazga ikkita yengil xizmat, shu jumladan bitta personal avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratsin.





Foydalanuvchi adabyotlar;

1. OECD, "PISA 2021 Results: A Focus on Reading", 2022.
2. Mullis, I.V.S., & Martin, M.O., "TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science", 2020.
3. Tashkent State University of Economics, "Xalqaro Baholash Dasturlari: Rivojlanish va Ta'lim", 2023.
4. <https://lex.uz/uz/docs/-4097073?ONDATE=05.04.2022>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_o%CA%BBquvchilarni_baholash_dasturi

